



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

S.S.Igamov

Samarqand davlat universiteti, o'qituvchi

UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA XALQ HUNARMANDCHILIGINI O'RGATISHDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lismaktablarida texnologiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida xalq hunarmandchiligin o'rgatishni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish orqali, ijodiy, kreativ, fikrlovchi o'quvchi shaxsini rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kreaktik, inovatsion yondashuv, texnologiya

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lismaktablaridan o'quvchilarga faqatgina bilim berish emas, balki ularni xar tomonlama rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va ularni mustaqil, tanqidiy, innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilish talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lismaktabli innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lmdir.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim – o'quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda, uni yangicha ijodiy, kreativ, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga turidir.

Bu ta'limga turi o'qitish muhitini o'quvchining intellektual imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'limga muhiti, pedagogik tashkiliy shart-sharoitlar, ta'limga hamda tarbiya jarayonida to'laligicha barcha imkoniyatlarini,

o‘quvchining innovatsion faoliyatini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy kompetensiyalarii shakllantirish, kamolotga yetishini ta’minalash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanishda o‘qituvchidan qator shartlarga qat’iy rioya etishni talab etadi. Ushbu talablar quyidagicha:

- har bir o‘quvchini alohida, individual shaxs sifatida ko‘ra olish;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini yarata olish;
- o‘quvchining psixologik holatini to‘g‘ri baholay olish;
- o‘quvchining xohish-istik, ehtiyojlarini, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir o‘quvchiga yaxshi munosabatda bo‘lishi;
- o‘quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir o‘quvchi uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;
- o‘quvchilarning innovatsion yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlarini ta’minalash;
- o‘quvchining qobiliyatini o‘sirish, rivojlantirish, ijodkor shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.

O‘quvchilar innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi

Texnologiya ta’limi o‘qituvchisi tomonidan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion xarakterga ega turli interfaol metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarni rivojlantirish, ijoiy qobiliyatlarini yanada o‘sirishga sabab bo‘ladi. Xususan: kreativ, izlanish, muammoli izlanish; innovatsion tadqiqotlarni olib borish; bahsmunozara, evristik suhbat; intervyu, kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg‘ulotlarini tashkil etishda texnologiya ta’limi o‘qituvchilari o‘quv axborotlarining o‘quvchilarning ehtiyojlari, qizikishlari, bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda, ularni qiziqqtira oladigan, fikrlashga, innovatsion yondashishga, innovatsion faoliyatga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Texnologiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va innovatsion texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o‘quv topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilarga usullarni mustaqil, ixtiyoriy, innovatsion tanlash imkonini berish;
- o‘quvchini juftlikda, kichik guruhdha va jamoada ishlashini ta’minalab berish;

- mashg‘ulotlarning to‘g‘ri loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi.

Eng muhimi texnologiya ta’limi o‘qituvchilar o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish, kompetesiyaviy yondashuv xarakteriga ega bo‘lishlariga e’tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala yoki muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning innovatsion fikr bildirishlari (noto‘g‘ri bo‘lsa-da, fikr bilirishlari)ga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni mantikiy fikrlashga undash innovatsion yondashuv asosida yo‘natirilgan ta’limga xos muhim belgilardan xisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya: Darslik, 7-s. –T.: “Sharq”, 2017. -237 b
2. Sharipov Sh. O‘quvchilar bilish faolligini oshirishda ijodkorlik metodlarining tutgan o‘rni // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2009. – № 4. – B.18-22.
3. Shomirzayev M.X. Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda nnovation pedagogik texnologiyalar.O‘quv qo‘llanma. -T. “Universitet”, 2020. -192 b